VOL. 1 | ISSUE 2 | APRIL 2026

UNISCIENCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



UniScience
International scientific journal

QO‘QON BAYOZLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Usmonova Maftuna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada № 2505 raqamli qo‘lyozmani o‘rganish zarurati, mavzuning dolzarbligi va bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan. XVIII – XIX asrlardagi Farg‘ona adabiy muhiti, shoirlari va ularning ijodi tahlil qilingan, qo‘lyozma misolida bayoz va undagi turli janrlar xususiyatlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar*: bayoz, munojaat, qasida, fard, band, g‘azaliyot, musammat, asliyat, kotib, tazkira, kulliyot.*

Аннотатсия. *В данной статье раскрывается необходимость изучения рукописи № 2505, актуальность и важность данной темы на сегодняшний день. Анализируется литературная среда Ферганы в XVIII-XIX веках, поэты и их творчество, изучаются особенности жанра байоз и варенье на примере рукописи.*

Ключевые слова*: баяз, муножаат, фард, источниковедение, текстоведение, газалият, мусаммат, аслият, катиб, тазкира, куллият.*

Annotation. *This article reveals the need for the study of manuscript № 2505, the relevance and importance of the topic today. The literary environment of Fergana in the 18th-19th centuries, poets and their work are analyzed, the features of the genre of bayoz and jam on the example of the manuscript are studied.*

Key words*: bayaz, munajaath, fard, source studies, textual studies, ghazaliyat, musammat, asliyat, katib, tazkira, kulliyat.*

“- Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi.
Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix,
bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q.
Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga,
dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.”[9]

Bugungi kun o‘zbek adabiyotida qo‘lyozma manbalarni o‘rganish va ularni mohiyatini ochib berish ko‘p yillik tarixlarni kashf qilishga yordam beruvchi manba hisoblanadi. Shu jumladan bayozlar o‘ziga xos adabiy manba vazifasini o‘taydi. Bayozlarni o‘qir ekanmiz bugungi kunda ilm ahliga ma’lum va mashhur mumtoz adabiyot namoyondalari yoki shu kunga qadar uchramagan ijod namunalari hamda ayrim ijodkorlar tomonidan yozilgan nasriy va nazmiy asarlarni uchratishimiz mumkin. Bu yo‘lda bayozlarni o‘rganish va ulardagi turli yangi ijodkorlarni topish va ularning shu kunga qadar no’malum bo‘lgan asarlarini to‘plash ham muhim masalalardan biridir.

Bayozlarning paydo bo‘lishi va ularning o‘rganilish tarixiga nazar tashlasak, ular dastlab arab adabiyotida VIII-XII asrlarda paydo bo‘lgan[10]. She’riyatimizning yorqin namoyondalari merosi hozirgi kunda individual poetik mahorat nuqtai nazaridan tadqiq etilmoqda. Bayozlarning taraqqiyot yo‘li xalqning bayozlarga nisbatan qiziqishining ortib borishi keyinchalik O‘rta Osiyoning turli hududlarida bayozchilik an’analarining keng yoyilishiga sabab bo‘lgan, bu an’analar esa bir necha o‘ziga xos bayozchilik maktablarining paydo bo‘lishiga zamin bo‘lib xizmat qilgan. Madaniyat va ma’rifat o‘choqlari hisoblangan Qo‘qon, Xorazm, Buxoro kabi shaharlarda o‘ziga xos turli xususiyat va qonun-qoidalarga ega bo‘lgan bayozchilik

[9] Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018. 1-bet.
[10] Х.А.Гибб.Арабская литература.М.,ИВЛ.1960,36-80 стр; Ўзбек адабиёти тарихи масалалари.-Т. Фан, 1976.80-бет.

yo‘nalishlari paydo bo‘la boshlagan. Bu shaharlarda siyosiy tuzum turlicha bo‘lganidek, bayozchilik maktablari ham o‘zaro bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan. Qo‘qon xonligida bayozchilikning keng ommalashuvi xalq tomonidan shu hududda yashab ijod etgan bir qator mumtoz adabiyot vakillarining ijodi bilan tanishishi va bu ijod namunalarining bugunga qadar yetib kelishi uchun imkon yaratgan.

Qo‘qon adabiy muhiti XVIII-XIX asrlarda shakllanib o‘z atrofida yuzdan ziyod ijodkorlarni birlashtirgan. Millat tarixida chuqur iz qoldirgan Qo‘qon adabiy muhitining yuzaga kelishida va uning taraqqiyoti shoh-shoir Amir Umarxon nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z davrining buyuk ijodkori, davlat arbobi bo‘lgan. Akademik A.Qayumov Qo‘qon adabiy muhitining mintaqaning boshqa adabiy muhitlaridan farqlovchi xususiyatlari haqida fikr yuritarkan, mazkurlardan biri bu muhitda o‘zbek tilining yetakchi mavqe’da bo‘lganligi ekanligini alohida ta’kidlab shunday deydi: “...aynan Qo‘qon adabiy muhitida mintaqadagi boshqa rasmiy tillar – arab va fors-tojik tillari orasida o‘zbek tili yetakchilikni qo‘lga kiritdi. Bu yerda juda ko‘p o‘zbek shoirlari kamolga yetishib, ona tillari bo‘lgan o‘zbek tilida devon tuzgan shoirlar yetishib chiqdilarki, ularga haqli ravishda Amiriy va Nodira boshchilik qilishardi.”[11] Adabiyotimizda katta-katta bayozlar, tazkiralar, kulliyot, majmua va devonlar ham aynan shu davrda tuzildi va aksariyati hozirgacha saqlanib kelinmoqda. O‘sha davr adabiyoti Amiriy va Nodira davrida gullab yashnagan paytni adabiyotda “Ikkinchi oltin asr”deb nomlangan ekan. Bu davrdagi ijod ahli orasida Fazliy, Ado, G‘oziy, Hoziq, Mushrif, Fayziy, Akmal, Maxmur, Gulxaniy, Oshiq, Vazir, Nola, Ma’yus, Mujrim, Ramziy, Afsus, Miriy, Nodir-Uzlat, Ravnaq, Hotif, Xijlat, Xon, Uvaysiy, Dilshodi Barno kabi o‘zbek va tojik tillarida qalam tebratgan iste’dodli so‘z ustalari bor

[11] Qayumov A. Amiriy – Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi // “Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T: Tamaddun, 2017.

edi. Bu shoirlarning ikki tilda ijod qilishgani ham asarlarning turli tillarda bitilganligiga dalolatdir. Bayozlar tarkibida ba'zan mashhur shoirlarning devonlarida ham mavjud bo'lmagan ayrim she'rlar uchrashi mumkin. № 2505 raqamli qo'lyozma bayozning yozilishi borasida turli farqlar mavjud. Kitob yuzasida berilgan ma'lumotga ko'ra bayoz hijriy 1304, milodiy 1886-yilda Qo'qonda Mirzo Muhmmad Buxoriy tomonidan ko'chirilgan. Ammo biz bayozning 65 betda berilgan misralardagi farqni ko'rishimiz mumkin. "Agar ko'rsang kitobimda xatolik. O'zimni so'k vale so'kma otamni… mullo Uzoqjon Ho'qandiy 1302- yil" deb yozilgan jumlalar ular orasidagi farqni ko'rsatadi. Bayoz so'ngida quyidagi so'zlar berilgan " Asari kunad shumo ro tammat tamom duoi salom 1306-yil kataba mirzo Muhammad Najoriy" deb yozib qo'yilgan. Bu kitobni milodiy 1888-1890 yillar atrofida yozib tugatilganini ko'rsatadi. Biz bayozning Qo'qon adabiy maktabiga oid ekanligini bilamiz, chunki berilgan qo'lyozmadagi nasriy va nazmiy shaklda yozilgan turli janrlardagi na'munalarda ijodkorlarning ismlari berib o'tilgan. Jumladan, bayoz tarkibida Navoiy taxallusi bilan ijod qilgan shoirning "Mushkul" nomli muxammasi, boshqa sahifalarda Amir, Fazliy, Darvesh Muhammad, Muhammad Hayo, Hasan Husayn, Mushtariy, Mashriq, Vazir, Ravnaq, Xotif, Xijlat, Nola, Ado, Afsus, Koshif kabi shoirlarning turkiy va forsiyda yozilgan turli misralarda yozilgan g'azallari, Qasidayi Ziynat, Qasidayi Mashriq, Munojaati avval, 74-sahifada Xofiz Xo'ja Bahri Tovil Sayyid Nuriddinxon To'raning forsiy nasr yo'nlishida yozilgan nomalari mavjud. Bularning barchalari Qo'qon diyorida yashagan va ijod qilgan adabiyot vakillaridir. Bu qo'lyozma varoqlari turli sariq, ko'k, yashil, pushti, oq ranglarda, shoirlarning ismlari sariq oltin ranglarda bezatilgan. Navoiy taxallusi bilan ijod qilgan shoirning "Mushkul" radifli g'azalidan namuna:

Visoling orzu aylab ko'ngul parvoz etar hardam,
Valekin bormog'im oson jamoling ko'rmog'im mushkul.

Bu g‘azal yorga bo‘lgan ishq yo‘lida yozilgan shoirning ishq-muhabbat to‘g‘risida yozilgan. Ma’no ko‘lami boyligi, badiiy saviyaga boyligi, poetik g‘oyalari yuksakligi bilan ajralib turadi. Bu g‘azalda yor misolida shoirning Allohga bo‘lgan ishqi desak ham adashmagan bo‘lamiz ma’noviy tuzilishi jihatdan shunga misol bo‘la oladi. Kitobda turli janrlarda g‘azal, muxammas, murabba, band, fard, munojaat, tarijband va nasriy yo‘nalishda yozilgan namunalardan iborat. ustilari to‘liq saqlanib qolinmagan, ayrim chetlarida yirtilgan joylari mavjud. Bayoz turkiy va forsiy tilda yozilgan. Ba’zi shoirlar ham turkiy, ham forsiyda ijod qilishgan.

Xulosa qilib aytganda, bu nusxani o‘rganish, undagi shoirlar she’rlarini tasniflab, qiyosiy tahlil qilish, mavzu doirasini aniqlash va ommaga yetkazish uchun bizga asos bo‘lib xizmat qiladigan narsa bu adabiy material-manbadir. Mazkur bayoz nusxasi o‘zining badiiy bezagi, tarkibidagi zarvaraqlar, kotiblar tomonidan chizilgan naqshlar va yozuv shakllari orqali Qo‘qon adabiy san’at, kitobat, xattotlik madaniyatining qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bayozni o‘rganish orqali shu kungacha ma’lum bo‘lmagan shoirlar va ularning yorqin namunalarini uchratamiz. Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xosligi va janrlar rangbarangligi ochib beriladi. Qisqa so‘zlardan foydalangan holda chuqur ma’no anglatish ham juda ko‘plab bandlarda berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Х.А.Гибб.Арабская литература. М., ИВЛ.1960,36-80 стр; Ўзбек адабиёти тарихи масалалари.-Т. Фан, 1976.80-бет.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. //Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

3. Qayumov A. Amiriy – Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi // “Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T: Tamaddun, 2017.

4.Хамидова М. Кулёзма баёзлар – адабий манба. - Тошкент: Фан, 1981. 28-б.

5. Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo‘lyozmalar institute Hamid Sulaymon fondi № 2505. 15 a bet.

6. Z.Shukurova. Bayoz tuzish an’anasi va uning adabiy jarayondagi ahamiyati.Til va adabiyot ta’limi. 2022.10 bet.

7.R.Orzibekov. O‘zbek adabiyot tarixi.O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiAdabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – T.: 2006.165 bet.

UniScience
International scientific journal